

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar–sentabrda Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM ) hajmi joriy narxlarda 24 978,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 0,6 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2019-yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 110,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 6,1 % ga yetdi.



### Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


|   |   | Mlrd. so'm      |                 | O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|---|---|-----------------|-----------------|---|
|   |   | 2019-yil        | 2020-yil        |   |
|   | <b>I. YaHM</b>                                | <b>22 443,0</b> | <b>24 978,5</b> | <b>100,6</b>  |
|   | <i>shu jumladan:</i>                          |                 |                 |   |
|  | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati        | 20 525,9        | 24 081,8        | 100,7   |
|  | Mahsulotlarga sof soliqlar                    | 1 917,1         | 896,7           | 100,4   |
|   | <b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b> | <b>20 525,9</b> | <b>24 081,8</b> | <b>100,7</b>  |
|  | Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi            | 8 712,4         | 10 541,2        | 102,7   |
|   | Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)            | 5 315,2         | 6 113,6         | 98,5  |
|  | sanoat  | 3 904,1         | 4 484,0         | 97,6  |
|  | qurilish                                      | 1 411,1         | 1 629,6         | 101,1   |

|   |  | Mlrd. so'm     |                | O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|---|--|----------------|----------------|---|
|   |  | 2019-yil       | 2020-yil       |   |
|   | <b>Xizmatlar</b>                                 | <b>6 498,3</b> | <b>7 427,0</b> | <b>99,7</b>   |
|  | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 402,9        | 1 536,7        | 96,0  |
|  | tashish va saqlash, axborot va aloqa             | 1 083,6        | 1 211,6        | 103,3   |
|  | boshqa xizmat tarmoqlari                         | 4 011,8        | 4 678,7        | 100,0   |

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 7 571,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 % ga kamdir.



**Yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari**



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,6 % ini tashkil etdi.

Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 1,4 % punktga ko`paydi va hisobot yilida 43,8 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmog`ining ulushi 18,6 % dan iborat bo`lib, 0,4 % ga kamaydi, qurilishniki esa 0,1 % punktga tushdi va 6,8 % ga yetdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 30,8 % ni tashkil qildi va o`tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 0,9 % punktga kamaydi.




### Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

|   |   | 2019-yil     | 2020-yil     |
|---|---|--------------|--------------|
|   | <b>I. YaIM, jami</b>                              | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
|   | <i>shu jumladan:</i>                              |              |              |
|  | Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati            | 91,5         | 96,4         |
|  | Mahsulotlarga sof soliqlar                        | 8,5          | 3,6          |
|   | <b>II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati</b> | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
|  | <b>Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi</b>         | <b>42,4</b>  | <b>43,8</b>  |
|   | <b>Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)</b>         | <b>25,9</b>  | <b>25,4</b>  |
|  | sanoat  | 19,0         | 18,6         |
|  | qurilish  | 6,9          | 6,8          |
|   | <b>Xizmatlar</b>                                  | <b>31,7</b>  | <b>30,8</b>  |
|  | savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar  | 6,8          | 6,4          |

|   |   | 2019-yil | 2020-yil |
|---|---|----------|----------|
|  | tashish va saqlash,<br>axborot va aloqa | 5,3      | 5,0      |
|  | boshqa xizmat tarmoqlari                | 19,6     | 19,4     |





## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



YaHMning o`shishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o`shish sur`atlari bilan bog`liqdir. O`shish sur`atlari qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 102,7 % (YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi – 43,8 %), qurilishda – 101,1 % ni (6,8 %) tashkil etdi. Sanoatda – 97,6 % (18,6 %), xizmatlar sohasida – 99,7 % ni (30,8 %), kamayish kuzatildi. Savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlarda kamayish - 96,0 % (6,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqada o`shish - 103,3 % (5,0 %) kuzatildi, boshqa xizmat tarmoqlari o`tgan yilning darajasida saqlanib qoldi - 100,0 % (19,4 %).




**Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha mutlaq o`shish sur`atlari**  
(o`tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




2020-yilning yanvar-sentabrida iqtisodiyotning qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida, qurilishda YaHMning 1,1 f.p. va 0,1 f.p. (2019-yilning yanvar-sentabrida mos ravishda 0,3 f.p. va 0,5 f.p.) ga o`shishiga hissa qo`shdi. Sanoat - 0,5 f.p. (2019-yilning yanvar-sentabrida mos ravishda 1,2 f.p.), xizmatlar sohasi - 0,1 f.p. (2019-yilning yanvar-sentabrida ijobiy 1,7 f.p.) ga kamaydi.



## 2020-yil yanvar-sentabr oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi



2020-yil yanvar-sentabrda YaHM deflyatori indeksi 2019-yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 110,6 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 117,8 % va sanoatda – 117,7 % qayd etildi.



## Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

